

“GLOBAL MAFKURAVIY KONFRONTATSIYA” TUSHUNCHASI: MAZMUN VA MOHIYATI

Adizov Azim Tolibovich

BuxDU mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15027116>

Annotatsiya. Ushbu maqolada global mafkuraviy konfrontatsiya tushunchasi va uning mazmuni mohiyati masalalari ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: globallashuv, mafkura, konfrontatsiya, mafkuraviy tajovuz, maʼnaviyat, milliy gʻoya, ommaviy madaniyat.

THE CONCEPT OF “GLOBAL IDEOLOGICAL CONFRONTATION”: CONTENT AND ESSENCE

Abstract. This article scientifically analyzes the concept of global ideological confrontation and its content and essence.

Keywords: globalization, ideology, confrontation, ideological aggression, spirituality, national idea, mass culture.

КОНЦЕПЦИЯ «ГЛОБАЛЬНОГО ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ПРОТИВОСТОЯНИЯ»: СОДЕРЖАНИЕ И СУТЬ

Аннотация. В статье научно анализируется понятие глобального идеологического противостояния, его содержание и сущность.

Ключевые слова: глобализация, идеология, противостояние, идеологическая агрессия, духовность, национальная идея, массовая культура.

Bugun jamiyatimizda globallashuv jarayonlari shiddat bilan kirib kelayotgan bir vaqtda milliylikni saqlash va milliy mafkura masalasi dolzarb masala boʻlib qolmoqda. Global mafkuraviy konfrontatsiya masalasiga toʻxtalishdan oldin avvalo mafkura va konfrontatsiya atamalariga toʻxtalmoqchimiz.

Mafkura - (ideologiya) atamasini fransuz faylasufi va iqtisodchisi Destyut de Trassi 1801-yilda ilmiy muomilaga kiritgan boʻlib, mafkura, siyosat, axloq va boshqalarning qatʼiy asosini belgilash uchun, gʻoyalar haqidagi taʼlimotni tushungan. Shuningdek faylasuf, vrach, Pver Jan Jorj Kabonis, Fransuz maʼrifatchisi Konstantin Fransua Volney tomonidan ham mafkura haqida fikrlar ilgari surilgan. Fransiyada Napoleon hukmronlik qilgan yillarda ideologlar, mafkurachilar deb jamiyat hayoti va mavjud siyosatdan amaliy ajralib qolganlar tushunilgan [1].

Mafkura tushunchasiga faylasuf olimlar turli taʼriflar bergan boʻlib, ularning shakli va mazmuni xilma-xildir.

J.Tulenov, K.Yusupov, Z.G'afurovlarning qayd qilishlaricha: "Mafkura... keng ma'noga... muayyan bir jamiyatdagi mavjud bo'lgan har bir sotsial guruh, millat va elat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari manfaatini ifodalovchi va ularga xos bo'lgan g'oyalar tizimini tashkil etadi va o'zining rang-barangligi bilan ifodalanadi... Tor ma'noda mafkura jamiyatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning umumiy muddaolarini ifodalovchi va ularning boshini biriktirib, jipslashtirib bitta asosiy maqsadga, ya'ni Respublikamiz mustaqilligini mustahkamlashga undaydigan milliy istiqloq haqidagi g'oyalar, bilimlar yig'indisini tashkil etadi".

Mafkuraviy jarayonlarning globallashtirishida bir-biridan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda:

1.Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminalashib, universallashtirib bormoqda.

2.Millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashtirishga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda[3].

Globallashtirish atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitning 1983-yili - Garvard biznes revyu jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi. Muallif yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashtirish jarayonini shunday deb atagan edi. Ushbu fanda asosiy e'tibor - global dunyo, - iqtisodiy-moliyaviy globallashtirish, tushunchalarni sharhlash, ma'naviy dunyog'arashga kiritish, xamda global transmilliy korporatsiyalarning shakllanishi, iqtisodiyotning mintaqaviylashtirish, dunyo miqyosida savdning jadallashtirish kabi masalalarga qaratilgan [3].

Ijtimoiy-gumanitar fanlar, siyosatshunoslikda transmilliylashtirish jarayonining tezlashuvi, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning yordamida yangi umumsayyoraviy tartibning shakllanishi har tomonlama chuqur tadqiq etilmoqda. Sotsiologiyada, madaniyatning universallashtirish natijasida turli davlatlar va mintaqalar xalqlari yashash tarzining yaqinlashuvi va birlashtirishini tasdiqlaydigan dalillarni izlamoqda. Tarix fanida, tarixiy asarlarda globallashtirish jarayoni kapitalizmning ko'p asrlik taraqqiyoti bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Globallashtirish sharoitida mafkuralarning ko'rinishlari mavjud bo'ladi. A.Yefendiyev ularni uch turga bo'ladi: butun dunyo insoniyat mafkurasi, aniq bir jamiyat va ma'lum bir ijtimoiy guruh mafkurasi. Mafkuraning o'zini esa bir necha qatlamlarga bo'ladi:

1. Mafkuraning birinchi qatlami – umuminsoniy qadriyatlar.
2. Mafkuraning ikkinchi qatlami – umumxalq, umummilliy qadriyatlar. Ushbu qadriyatlar ma'lum bir jamiyatni jipslashtiradi va larzalardan asraydi.
3. Mafkuraning uchinchi qatlami – ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf manfaatlari, ularni esa siyosiy partiyalar olg'a suradi. Ularni umumiy maqsad va manfaatlar birlashtirib turadi. Lekin ushbu maqsadlar umummilliy, umuminsoniy qadriyatlarga zid kelmasligi kerak[4].

Globallashuv davrida mafkuraviy konfrontatsiya masalasida shuni ta'kidlash joizki buni 3 jihatdan tahlil qilish mumkin. Ya'ni umuminsoniy konfrontatsiya, umummilliy konfrontatsiya va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi konfrontatsiya misolida ko'rish mumkun. Bu bosqichlar mafkuraviy konfrontatsiyaning tarkibiy funksional qismi bo'lib hisoblanadi.

Konfrontatsiya fronsuzcha confrontation lot.con-qarshi – frons, frontis – peshona, old tomon) qarama-qashilik, o'zaro ixtilofda bo'lish, to'qnashuv[5].

Mafkuraviy konfrontatsiya esa turli davlatlar, siyosiy kuchlar yoki mafkuraviy tizimlar o'rtasida dunyoqarash, qadriyatlar va tamoyillar bo'yicha kelishmovchilik va qarama-qarshilik holari kabi jarayonlarda namoyon bo'lsa, global mafkuraviy konfrontatsiya xalqaro darajada yoinkim global miqyosida kechishini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda global mafkuraviy konfrontatsiya xalqaro munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, dunyo siyosatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda davlatlar, tashkilotlar va jamoatlar o'z mafkurasini himoya qilish yoki yoyish uchun turli vositalardan foydalanadi. Shu sababdan mazkur jarayonda har bir millat o'zining milliy g'oyasini saqlab qolish uchun harakat qilishi kerak.

REFERENCES

1. Худайбердиев Х. Ўзбек миллий мафкурасининг тараққиёт босқичлари (Маънавий-мафкуравий таҳлил) монография. –Термиз., 2023. “Irfon-print”, -Б.8.
2. Ражаб Қиличев “Миллий ғоя ва мафкура: асосий тушунча ва атамалар”, “Дурдона” нашриёти-2014, 61-62 бетлар.
3. <https://staff.tiame.uz/storage/users/426/presentations/zdn2NM012UgQpSrIMeGUDleagw9jDUT6JoKqrakr.pdf>
4. Эфендиев А.Г. Идеология в современном обществе. – М., 2000. – С. 385.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati Ikkinchi jild. –T., 2023., “G'afur G'ulom”, B.-892.
6. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – T. 2. – №. 5. – С. 82-85.

7. Asror o'g'li A. A. History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 339-342.
8. Akhmadjon A. HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
9. Ahmadov A. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VA AFG'ONISTON EMIGRATSIYASI VA REMIGRATSIYASI //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 1. – C. 842-845.
10. Ahmadov A. BUXORO AMIRLIGIDAGI AFG'ONLAR: HAYOTI VA FAOLIYATI XUSUSIDA //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 1304-1308.